

KIMYO 9-SINF 26-30&

	SAVOL	JAVOB
1	Alyuminiyning a) zichligi, b) suyuqlanish harorati qanday?	a) 2698 kg/m ³ , b) 660,5 °C
2	Alyuminiy qizdirilganda qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?	Galogenlar, fosfor, oltingugurt, azot, uglerod
3	Alyuminiy bilan temir kuyundisining aralashmasi nima deb nomlanadi?	Termit
4	Metall oksidlarini alyuminiy bilan qaytarib, metall olish usuli qanday nomlanadi?	Alyuminotermya
5	Aluminotermya usuli kim tomonidan ochilgan?	Rus olimi N.N.Beketov
6	Al ₂ O ₃ tabiatda qanday minerallar tarzida uchraydi?	Boksit, korund
7	Al ₂ O ₃ suvsiz ishqorda eriganda qaysi moddani hosil qiladi?	NaAlO ₂ – natriy metaalyuminat
8	Alyuminiy va uning qotishmalari nima uchun xalq xo'jaligida keng ishlatiladi?	Yengilligi va havo, namlik ta'siriga chidamli bo'lganligi uchun
9	Dyuralyuminiy po'latdan necha barobar yengil?	3 barobar
10	Alyuminiy qotishmalari qaysi sohalarda ishlatiladi?	Raketa, aviatsiya, kemasozlik, temiryo'l transporti, qurilish, asbobsozlikda
11	Alyuminiydan elektrotexnikada qanday mahsulotlar tayyorlanadi?	Kondensatorlar
12	Alyuminiy sulfat qaysi sohalarda qo'llaniladi?	Qog'oz, yelim ishlab chiqarishda, kaliy-alyuminiy achchiqtosh KAl(SO ₄) ₂ · 12H ₂ O gazlamalarni bo'yashda, tibbiyotda
13	Korund mineraliga Cr ³⁺ ioni oz miqdorda aralashgan bo'lsa, qaysi qimmatbaho tosh hosil bo'ladi?	Qizil rangli rubin
14	Korund mineraliga kobalt, temir, titan ionlari aralashgan bo'lsa, qaysi qimmatbaho tosh hosil bo'ladi?	Ko'k rangli sapfir
15	Korund mineraliga marganes ionlar aralashgan bo'lsa, qaysi qimmatbaho tosh hosil bo'ladi?	Binafsha rangli ametist
16	Rux guruhchasida elementlarning tartib raqami ortib borgan sari a) metallik xossasi, b) kimyoviy aktivligi qanday o'zgaradi?	a) ortadi, b) kamayadi
17	Elektr o'tkazuvchanligi kumush, mis va oltin qatorida qanday o'zgaradi?	Kamayadi
18	Mis rudalari a) qaysi konda mavjud, b) qayerda qayta ishlanadi?	a) Olmaliqdagi Qalmoqqir konida, b) Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida
19	a) Oltin b) kumush qaysi konlardan qazib olinadi?	a) Markaziy Qizilqumdagi Muruntov, b) Navoiy, Namangan viloyatlaridagi konlardan
20	Kupritning formulasi qanday?	Cu ₂ O
21	Mis yaltirog'i, xalkozinning formulasi qanday?	Cu ₂ S
22	Mis kolchedani ning formulasi qanday?	CuFeS ₂
23	Malaxitning formulasi qanday?	(CuOH) ₂ CO ₃
24	Kumush yaltirog'i, argentitning formulasi qanday?	Ag ₂ S
25	Misning qalay bilan hosil qilgan qotishmasi nima deb ataladi?	Bronza

26	Toza mis olish uchun sanoatda qaysi usuldan foydalaniladi?	Elektroliz
27	CuO ning rangi qanday?	Qora
28	Cu(OH) ₂ ning rangi qanday?	Havorang
29	CuSO ₄ ning rangi qanday?	Oq
30	CuSO ₄ ·5H ₂ O – mis kuporosining rangi qanday?	Ko'k
31	Mis (II)-xlorid (CuCl ₂ ·2H ₂ O) ning rangi qanday?	Yashil
32	Mis (II)-nitrat (Cu(NO ₃) ₂ ·3H ₂ O)	Ko'k
33	Tuproqda misning yetishmasligi o'simliklarning qaysi xususiyatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi?	O'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga
34	Kumushning bromid tuzi yorug'likni o'ta sezuvchi bo'lganligi uchun nima maqsadda ishlatiladi?	Foto va kinoplyonkalar tayyorlashda
35	AgNO ₃ qanday maqsadlarda ishlatiladi?	Fotomateriallar tayyorlashda, kimyoviy analizda, organik kimyoda oksidlovchi, ko'zgu ishlab chiqarishda, buyumlar sirtini kumush bilan qoplashda
36	Oltinning rudasidan oltinni ajratib olish uchun qaysi usuldan foydalaniladi?	Rudani yuvish usulidan
37	Sanoatda oltinni ajratib olish uchun qaysi usuldan foydalaniladi?	Sianlash usulidan $4\text{Au} + 8\text{KCN} + \text{O}_2 + 2\text{H}_2\text{O} = 4\text{K}[\text{Au}(\text{CN})_2] + 4\text{KOH}$ $2\text{K}[\text{Au}(\text{CN})_2] + \text{Zn} = \text{K}_2[\text{Zn}(\text{CN})_4] + 2\text{Au}$
38	Oltin faqat qaysi modda bilan ta'sirlashadi?	Zar suvi, ya'ni nitrat kislotasi bilan xlorid kislotani 1:3 mol nisbatdagi aralashmasi $\text{Au} + \text{HNO}_3 + 3\text{HCl} = \text{AuCl}_3 + \text{NO}\uparrow + 2\text{H}_2\text{O}$ $\text{AuCl}_3 + \text{HCl} = \text{H}[\text{AuCl}_4]$ Umumiy: $\text{Au} + \text{HNO}_3 + 4\text{HCl} = \text{H}[\text{AuCl}_4] + \text{NO}\uparrow + 2\text{H}_2\text{O}$
39	Qaytaruvchilik xossasi ruxdan simobga tomon qanday o'zgaradi?	Kamayadi
40	Rux shpatining formulasi qanday?	ZnCO ₃
41	Rux aldamasining formulasi qanday?	ZnS
42	Grinokitning formulasi qanday?	CdS
43	Kinovarning formulasi qanday?	HgS
44	Rux rudalari O'zbekistondagi qaysi konlardan qazib olinadi?	Jizzax, Surxondaryo viloyatlarining Uchquloq va Xondiza
45	Rux kuporosining formulasi qanday?	ZnSO ₄ ·7H ₂ O
46	Simob qaynash haroratiga yaqin haroratda (357,25 °C) qaysi modda bilan reaksiyaga kirishadi?	Kislorod bilan
47	Hg ₂ O simob (I)-oksidining rangi qanday?	Qora
48	HgO simob (II)-oksidining rangi qanday?	Qizil (maydalangan holatda sariq)
49	Rux kuporosi (ZnSO ₄ ·7H ₂ O)ning qaysi modda bilan aralashmasi ruxli mikroo'g'it sifatida qishloq xo'jaligida ishlatiladi?	(NH ₄) ₂ HPO ₄
50	ZnCl ₂ qanday maqsadda ishlatiladi?	Metallarni payvandlashda
51	ZnS ni BaSO ₄ bilan aralashmasi qanday maqsadda ishlatiladi?	Oq rangli bo'yoqlar tayyorlashda
52	CdS va BaSO ₄ aralashmasi qanday nomlanadi?	Kadmopon
53	Metallarning simobdagi eritmasi nima deb ataladi?	Amalgamalar
54	Amalgamalar qaysi sohalarda qo'llaniladi?	Metallurgiyada, tibbiyotda